

UZBEKISTAN STATE UNIVERSITY
OF WORLD LANGUAGES



АРАБСКИЙ ЯЗЫК В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

"اللغة العربية في عصر العولمة : مناهج
وأساليب تدريس مبتكرة"

المؤتمر العلمي والعملية الدولي

ARABIC LANGUAGE IN THE ERA OF GLOBALIZATION: INNOVATIVE APPROACHES AND TEACHING METHODS

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI TARJIMONLIK
FAKULTETI ARAB TILI TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI**

**“ARAB TILI GLOBALLASHUV DAVRIDA:
INNOVATION YONDOSHUVLAR
VA O'QITISH METODIKASI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**"اللغة العربية في عصر العولمة : مناهج
وأاليب تدريس مبتكرة"
المؤتمر العلمي والعملية الدولي**

**ARABIC LANGUAGE IN THE ERA OF GLOBALIZATION:
INNOVATIVE APPROACHES AND TEACHING
METHODS**

international scientific and practical conference

18-dekabr 2023-yil

TOSHKENT – 2023

TA'LIM MUHITIDA VIRTUAL DISKURSNING O'RNI

Mustafayev Shaxboz Baxtiyorovich

*O'zDJTU Tarjimonlik fakulteti "Italyan tili tarjima nazariyasi va amaliyoti"
kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ta'lim va boshqa sohalarida masofaviy aloqaning keng qo'llanilishi tufayli virtual diskurs keng tarqaldi. Ta'lim muhitida virtual diskursni o'rganishdan maqsad uning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish, uning afzallik va kamchiliklarga bo'lish mumkin bo'lgan parametrlarini o'rganish, shuningdek, bevosita ishtirokchilarning nutq, harakat va tafakkurlarini tahlil qilishdir. Zamonaviy ta'lim makonining muhim jihati virtual va real diskurslar o'rtasidagi muvozanatni izlashdir.

Kalit so'zlar: virtual diskurs, ta'lim muhiti, virtual muloqot, sinxron kommunikatsiya, asinxron kommunikatsiya.

Аннотация. Благодаря широкому использованию удаленного общения в образовании и других сферах, виртуальный дискурс получил широкое распространение. Цель изучения виртуального дискурса в образовательной среде – понять его особенности, изучить параметры, которые можно разделить на преимущества и недостатки, а также проанализировать речь, действия и мысли непосредственных участников. Важным аспектом современного образовательного пространства является поиск баланса между виртуальным и реальным дискурсами.

Ключевые слова: виртуальный дискурс, образовательная среда, виртуальное общение, синхронное общение, асинхронное общение.

Annotation. Thanks to the widespread use of remote communication in education and other fields, virtual discourse has become widespread. The purpose of studying virtual discourse in an educational environment is to understand its features, study parameters that can be divided into advantages and disadvantages, and also analyze the speech, actions and thoughts of direct participants. An important aspect of the modern educational space is the search for a balance between virtual and real discourses.

Key words: virtual discourse, educational environment, virtual communication, synchronous communication, asynchronous communication.

Zamonaviy ta'lim muhitida virtual diskurs tushunchasi keng qo'llanila boshladi, bu esa birinchi navbatda, pandemiya davrida masofaviy ta'limning keng tarqalishi bilan bog'liq. Virtual makon sun'iy ravishda yaratilgan va, albatta, real hayotdagi muloqotdan sezilarli darajada farq qiladi. Biroq, virtual kommunikatorlar ortida haqiqiy shaxslar yashiringan bo'lib kompyuter, planshet,



telefon yoki boshqa elektron qurilmalarga faqat texnik aloqa vositasi sifatida qaraladi. Virtual olamda inson, voqelikdan farqli ravishda kommunikatsiya qilmasdan o'zini ovoza qilolmaydi, tanitolmaydi, shu sababli ham virtual makonda lisoniy shaxsning o'zini tanishtirishning asosiy vositasi bu uning kommunikativ xulq-atvoridir. Faqatgina muloqot qilish orqaligina virtual shaxs boshqa foydalanuvchilar tomonidan tan olinadi va baholanadi. Virtual diskurs muammolarini tadqiq qilish falsafa, psixologiya, tilshunoslik hamda boshqa fanlarning obyekti sifatida qaraladi va ko'pincha bu sohalar virtual makondagi jarayonlarni yanada obyektiv baholash maqsadida o'z ilmiy yutuqlarini umumlashtiradi. Virtual diskurs monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham amalga oshirilishi mumkin va foydalanish doirasiga qarab ko'plab janrlar bilan tavsiflanadi. Virtual va real muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi muloqotning o'ziga xosligi muloqotning muayyan pragmatik munosabati va maqsadlaridadir. Virtual ta'lim muhitining tizim sifatida samarali ishlashi uchun ishtirokchilarga birgalikda, intizomli va muvozanatli harakat qilish tavsiya etiladi.

Virtual diskurs atamasi ikki komponentdan – diskurs va virtualdan tashkil topgan. Diskurs atamasi V.S. Stepin tahri ostidagi yangi falsafiy ensiklopediyada "til ichidagi til" sifatida talqin etiladi: nutq va matnlarda aktuallashadigan muayyan leksika, semantika, pragmatika va sintaksis. "Virtual" so'zining sinonimlari hamda unga ma'noviy yaqin so'z va iboralar quyidagilar: xayoliy, haqiqiy bo'lmagan, noreal, faraziy, sharpali, ko'rinadigan, soxta, zohiriy, efemer, vaqtinchalik, uydirma, ruxsat etiladigan, potentsial, da'vo qilingan, mumkin, ehtimoliy, shartli, fantastik, kimerik, mavjud bo'lmagan. Shuning uchun virtual diskurs virtual reallikda mavjud bo'lgan va ushbu reallikning asosiy xususiyatlariga (oqibat, dolzarblik, avtonomlik, interaktivlik, sho'ng'ish) ega bo'lgan matn sifatida ko'rilishi mumkin. Virtual nutq o'zining leksik, semantik, pragmatik va sintaktik parametrlariga ega bo'lgan, sinxron va asinxron aloqaning maxsus tipidagi vaziyatga sho'ng'igan yozma va og'zaki nutqdir.

Yangi virtual diskursiv makonning paydo bo'lishi lingvistik o'zaro ta'sirning yangi shaklining paydo bo'lishi haqida so'zlashga imkon beradi. Og'zaki nutqning yozma qayd etilishi og'zaki nutq xususiyatlarini grafik tarzda yetkazish imkonini berdi, masalan, virtual diskursda sodda gaplar va sintaktik konstruksiyalar qo'llaniladi, so'zlarning tartibiga har doim ham e'tibor berilmaydi, matnni qurishda mantiq ko'pincha buziladi. Onlayn muloqot haqiqiy muloqotdan farqli o'laroq, har doim ham imo-ishoralarni, holatlarni, yuz ifodalarini baholashga imkon bermaydi, ular hissiy holatni aks ettiruvchi grafik belgilar (emotikonlar, smayliklar, memlar, stikerlar, diagrammalar, fotosuratlar, chizmalar, tinish belgilari, caps lock va boshqalar) bilan almashtiriladi. Virtual nutq sinxron va asinxron modellar bilan tavsiflanadi, bu uning funksionalligi, moslashuvchanligi va dinamikligini ta'minlaydi. Sinxron model quyidagi parametrlarni o'z ichiga oladi: interaktivlikning yuqori darajasi; og'zaki va yozma muloqot qilish imkoniyati; real vaqt rejimida noyob aloqa holatlarini yaratish; aloqa jarayonida ishtirokchilarning yuqori ishtiroki; kommunikativ kompetentsiyani oshirish

(nutqning izchilligi va ravonligi, leksik birliklarni tanlashning adekvatligi, nutq belgilaridan foydalanish); nutqiy birikmalarni grammatik buzib shakllantirish hisobiga fikrni ma'noviy jihatga qaratish. Og'zaki va yozma sinxron muloqotlarda muloqotning noyob holatlari sezilarli yuqori darajadagi interaktivlik bilan tavsiflanadi.

Ta'lim muhitida virtual nutqni o'rganishning maqsadlaridan biri uning parametrlarini o'rganish bo'lib, ularni ikki guruhga bo'lish mumkin: afzalliklari va kamchiliklari. Biz virtual nutqning quyidagi afzalliklarini ajratdik:

- 1) polifoniya (axborot kontentlarini ko'p taraflama talqin qilish);
- 2) o'qituvchi va talaba o'rtasidagi individual hamkorlik imkoniyatlarini oshirish (onlayn maslahatlar);
- 3) o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot uslubini demokratlashtirish (passiv o'quvchi va faol, to'liq huquqli o'qituvchi rollari bilan o'quv jarayonini tashkil etishdan uzoqlashish) [Преподаватель в виртуальной образовательной среде: электрон manba];
- 4) haqiqiy hayotda olish imkonsiz yoki qiyin bo'lgan yangi va noyob tajribaga ega bo'lish (turli rollarda o'zini sinab ko'rish va shu bilan shaxsiyatni boyitish imkoniyati) [Преподаватель в виртуальной образовательной среде: электрон manba];
- 5) muloqotning moslashuvchanligi (asinxron aloqa rejimida o'quvchi qulay joy va vaqtni, o'z tezligi va ritmini tanlash imkoniyatiga ega; o'quv jarayonini sozlash, materialga qaytish; o'z-o'zini tekshirish va boshqalar);
- 6) noma'lum sherik bilan muloqot qilish imkoniyati sifatida muloqotning anonimligi;
- 7) muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan psixologik noqulaylikning yo'qligi (muloqotning noverbal parametrlari va suhbatdosh bilan bevosita aloqa mavjud emas).

Shu bilan birga, virtual nutqning kamchiliklari:

- 1) izolyatsiya (virtual dunyo real hayotga qaraganda jozibali va afzalroq ko'rinadi);
- 2) shaxsizlanish (virtual dunyo o'lik dunyo bo'lib, unda noyob mavjudotlar yashashi uchun joy yo'q);
- 3) muloqotning anonimligi (jazoning yo'qligi tufayli og'zaki tajovuz, nafrat so'zlari, bulling, trolling va boshqalar ko'p qo'llaniladi);
- 4) o'qituvchilarning virtual aloqaning yangi texnologiyalarini (axborotdan foydalanish, o'zgartirish, uzatish, qayta ishlash, to'plash, saqlash va nazorat qilish) o'zlashtirish zarurati;
- 5) o'qituvchining yangi funktsiya va vazifalarining paydo bo'lishi: virtual o'quv-uslubiy majmuani tayyorlash (virtual ta'lim muhitini tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish; virtual muhit qobig'ida materiallarni joylashtirish; audio va video materiallarning elektron ma'lumotlar bazasini yaratish zarurati) [Преподаватель в виртуальной образовательной среде: электрон manba];



6) maxsus tarmoq etikasining paydo bo'lishi hamda onlayn darslarda o'ziga xos subtilidan foydalanish (darslar yuzma-yuz emas, balki raqamli sinflarda onlayn tarzda o'tkaziladi);

7) hissiy degradatsiya (virtual dunyo hissiy cheklangan, bu insonning tabiiy hissiy qobiliyatlarini xiralashishi va hatto atrofiyasiga olib kelishi mumkin);

8) virtual nutqning tizimsizligi (leksik birliklardan foydalanishda bu yaqqol ko'rinadi; semantik noaniqlik, matnning to'liq emasligini ko'rsatish; umumiy qabul qilingan talqinlarning yo'qligi; parchalanish xarakteri; argumentatsiyaning yo'qligi) [Kurbatov 2013: 65].

Shunday qilib, hozirda sinxron va asinxron modellar bilan ifodalangan zamonaviy ta'lim muhitidagi virtual diskurs nihoyatda keng tarqalmoqda va virtual haqiqatdagi muloqot vaziyatiga cho'mgan matn sifatida talqin etiladi. Virtual ta'lim nutqini o'rganishning maqsad va istiqbollari uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, uning turli parametrlarini, afzalliklarini, kamchiliklarini o'rganish, shuningdek, uning ishtirokchilarining virtual nutqi va tafakkurini tahlil qilishdir.

Zamonaviy ta'lim maydonining muhim jihati virtual va real diskurs o'rtasidagi muvozanatni izlashdir, chunki virtual diskursning hukmronligi uning ishtirokchilari uchun juda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin: virtual dunyoga ko'nikish va uning qonunlarini real dunyoga targ'ib qilish; tizimli fikrlash qobiliyatini yo'qotish; virtual diskursning real diskursdan ustunligi sabab reallikni noto'g'ri baholash barcha darajadagi – shaxslararo, madaniy, ijtimoiy, milliy, iqtisodiy, siyosiy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Новая философская энциклопедия: В 4 т. Под редакцией В.С. Стёпина. 2001. URL: <https://iphras.ru/page12557492.htm> (murojaat sanasi: 08.07.2023) – НФЭ.

2. Лутовинова О.В. Интерактивная компетенция и виртуальный дискурс // Язык и межкультурная компетенция. Сб. ст. / под общ. ред. Э.И. Цыпкина. Петрозаводск: Изд-во «Карельский государственный педагогический университет», 2007. С. 53-56.

3. Гриценко Л.М. Особенности виртуального дискурса // Молодой ученый. 2011. № 6 (29). Т. 2. С. 17-20.

4. Преподаватель в виртуальной образовательной среде. URL: <https://ped.bobrodobro.ru/3173> (murojaat sanasi: 08.07.2023).

5. Курбатов В.И. Виртуальная коммуникация, виртуальное сетевое мышление и виртуальный язык // Гуманитарий Юга России. 2013. № 4. С. 56-68.

6. Mustafayev Sh.B. Virtual kommunikativ muhitda italyan ismlarining leksik va semantik tabiati // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№7 (78), 2021, 254-257

7. <https://tahrirlovchi.uz/lugat>



I. Kaxarova. Nutqning ta'sirchanligini oshirishda undov so'zlarning o'ziga xos grammatik xususiyatlari	631
Z.B. Atabayeva, M.Y. Umarova. Jahon adabiyotida faustchilik an'anasi va uning variatsiyalari	636
П. Габибуллаева. Заимствованные слова в произведениях даргинских писателей и поэтов	640
Х.Б. Самигова, Ш. Жураева, М. Зокирова, Р. Умаралиева. Эркалаш-кичрайтиришга оид тил бирликлари этимологиясига назарий ёндашув	644
O'U. Sulaymonova. Manipulative speech discourse features.....	648
F.G. Zakirova. IIV Xodimlari va kursantlari tibbiy-ijtimoiy kompetentligini takomillashtirishda shaxslararo muloqot ma'nosini tushunish refleksiyasidan foydalanish	652
Sh.M. Kalimbtov. Emotsiya tushunchalarining tilshunoslikda talqin qilinishi ingliz va qoraqalpoq tillari materialida	656
F.D. Sharipova. The peculiarities of teaching pragmalinguistic transformations	660
Sh.B. Mustafayev. Ta'lim muhitida virtual diskursning o'rni.....	663
K.T. Alimova. The culture of professional communication of the guide-translator	667
A.D. Ma'diyeva. Jahon adabiyotida an'anaviy obrazlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari	671
G. Saydaxmedova. Field of fear in english and uzbek.....	677
Р.М. Худжаева. Сўзлар рақси: ўзбек бадийй санъатида омонимлар	682
G.R. Vasliddinova. Italyan va o'zbek tillaridagi badiiy asarlarda uchraydigan emotsional – ekpressiv ifodalar tahlili	687
М.В. Дадамирзаева. Статус французского языка на территории стран магриба	692
M.N. Bekmurodova, S. Mamatqulova. Lingvistika.....	696
O'A.Umarov, Sh.M.Muxamedov. Eron xalq ertaklari: Fors folklorshunosligida "افسانه" ("ertak") so'zining ilmiy atamasi.....	702
V.Sh. Nazarov. Chet tillarni o'rganish, o'qitish va baholashda multimedia ta'lim mahsulotlarining roli, ahamiyati hamda motivatsion xususiyatlari.....	707

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI TARJIMONLIK
FAKULTETI ARAB TILI TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“ARAB TILI GLOBALLASHUV DAVRIDA:
INNOVATION YONDOSHUVLAR
VA O'QITISH METODIKASI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**"اللغة العربية في عصر العولمة : مناهج
وأساليب تدريس مبتكرة"**
المؤتمر العلمي والعملية الدولي

**ARABIC LANGUAGE IN THE ERA OF GLOBALIZATION:
INNOVATIVE APPROACHES AND TEACHING
METHODS**

international scientific and practical conference

18-dekabr 2023-yil

Nashrga taqdim etilgan materiallar sifati, berilgan faktlar, tegishli nomlar va boshqa ma'lumotlar, shuningdek, e'lon qilinishi mumkin bo'lmagan ma'lumotlarni oshkor qilganliklari uchun maqola mualliflari javobgar bo'ladilar.